

TONG YULDUZI

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

Gazeta 1929 yil 1 avgustdan chiqqan boshlagan

№ 10 (66343)
2002 yil 8 mart, juma

Sotuvda erkin narxda

Muharrir minbari

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas
emish, - deb kuyinib yozgan

Odam bolasi dunyoga shunchaki
kelmaydi, balki hazrat Navoiy

OLAM ICHRA YASHARAR ODAM

Agaridek, komillikka erishish uchun,
o'z atrofidagi odamlar ta'sirida
kamolotga yetishish uchun keladi.
Ma'naviy boy, jismonan sog'lom va
axloqiy pok bo'lib borgani sari
zaminimiz boyligi ortadi. Ma'naviy
xazinamizni saqlash va boyitish uchun
yaratuvchi insonda keng imkoniyatlar
ochiladi

Ona yer, qadrdon zamin odamlarga
hamisha kuch-quvvat bag'ishlab
kelgan. Chinakam farzandlar o'z ona
go'shasi uchun jon fido qilishga
tayyordirlar. Jon fidolik, ya'ni
fidokorlikni hamma har xil his qiladi.

Toshkentlik Farhod akangiz Afg'on
urushida bo'lgan vaqtida yaralanib,
harbiy kasalxonaga tushdi. Yolg'iz
o'g'il emasmi, dardimni onam ko'tara
olmaydilar, deb uyiga sog'-omonman,
haddemay diydor ko'rishamiz, deb xat
yozdi. Ona esa xatni o'qib, og'ir
yaranlamadingmi, ahvolding tuzukmi,
deb javob yo'lladi. Bundan hayratga
tushgan Farhod onasidan meni
yaralanganimni qanday bildingiz? -deb
so'rganida, xatingni hidlab bildim
bolam, undan dori hidi anqib turardi,
degan javobni oldi. Ha, hamisha
sezgir, joniga jon ipi bog'liq farzandiga
onaning! Vatan so'zi oldiga Ona so'zini
qo'shib aytilishi ham bejiz emas.



Navoiylar, Hindistondak imperiya
yaratsa-da, Vatandan ko'ngil uza
olmasdan ko'z yumgan Boburlar. Ha,
Vatansiz baxt yo'q, onasiz insonning
o'zi ham yo'q. Onalar farzandining
dardu-azobini ham, baxtu quvonchini
ham tush ko'rib-da, ko'zi uchib,
ko'ngli xiralashib yoki yorishib,
kayfiyati o'zgarib-da... biladi.
Bolasining kechmish-kechirmishiga
qo'shib yashaydi. Ona zaminimiz
ham biz farzandlarini kiydirib,
to'ydirsam deydi. Ona sayyoramizda
O'zbekiston otliq mamlakatning o'z
hudud, chek- chegarasi bor,
boyliklari-yu sepul bisotlari mujassam
ekan, ertaga hayot bundan-da yaxshi
bo'ladi. Oqqan daryolar yana ayqirib,
hayqirib oqadi, yaratish va yashnatish
ishqi-la band odamlari esa olam aro
yosharib boraveradi. Bunday
yosharmoqlik quvonch va hayajonlari
bisyor bo'lgan makonda joziba kashf
etaveradi.

Onalikning, ona Vatan, ko'rkam
diyor tuyg'usi barqarorligining
ma'nosi ham aslida shundandir.

**Assalom, bahor! Assalom,
bahorning ilk bayrami, dasta
gullar boylami sizga bo'lsin aziz
onajonlar, mehribon opa-singillar
deyiladigan kun - 8 Mart ayyomi!**

**Prezident asarlarini
o'rganamiz**

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

**MILLIY ISTIQLOL
G'OYASI:
ASOSIY TUSHUNCHA VA
TAMOYILLAR**

Shu bilan birga, men milliy istiqlol
g'oyasi bugungi tez sur'atlar bilan
o'zgarayotgan tahlikali dunyoda
o'zligimizni anglash, bizning
kimligimizni, qanday buyuk
ajdodlarning merosiga, necha ming
yillik tarix, betakror madaniyat va
qadriyatlariga ega ekanimizni his etib
yashashga, bu boylikni asrab-avaylab,
demokratik qadriyatlar, butun jahon
taraqqiyoti yutuqlari bilan oziqlantirib,
yangi o'sib kelayotgan avlodga
yetkazishga xizmat qilmog'i zarur, deb
bilaman.

Hozirgi murakkab sharoitda ham, qim�,
avvalo, o'sib-unib kelayotgan yosh
avlodimiz ongi va qalbida mafkuraviy
immunitet hosil qilish muhim
ahamiyatga ega. Bu ishni bamosoli yosh
niholga mevali daraxt kurtagini
payvand qiladigan ustoz bog'bondek
nozikklik va mehr bilan, oqilona yo'l
bilan amalga oshirish lozim.

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot,
informatsion inqilob, globallashuv
jarayonlari, jahon maydonlarini ta'sir
o'tkazish maqsadida bo'lib olishga
intilish, bu maydonlardagi o'zaro
kurash sharoitida mafkuraviy
siyosatning ahamiyati va o'rni naqadar
ortib borayotganini tushuntirib
o'tirishning hojati yo'q, deb
o'ylayman. Sobiq ittifoq hududidagi
bugungi mafkuraviy vaziyat, bu
sharoitda Markaziy Osiyo
mintaqasidagi ahvol, begona mafkura
va g'oyalarning O'zbekiston va
qo'shni davlatlarga xuruji, eski
mafkuradan voz kechish natijasida
paydo bo'lgan bo'shliqni yangi —
milliy g'oya, istiqlol mafkurasi bilan
to'ldirishning zarurati barchamizga
ayon bo'lishi dardkor.

Shuni alohida ta'kidlamogchimanki,
milliy g'oya va istiqlol mafkurasi
yurtimizda yashayotgan barcha
kishilarning ma'naviy boyligiga,
dunyoqarashining negiziga
aylanishiga erishish biz uchun eng
asosiy maqsaddir.

Endigi vazifamiz shundan iboratki,
milliy istiqlol g'oyasi tushunchalari
asosida keng jamoatchilik, ziyolilarimiz,
ilm-fan va madaniyat namoyandalari,
avvalo, ma'naviy-ma'rifiy soha
xodimlari milliy mafkurani
takomillashtirish hamda uning asosiy
tamoyillarini odamlar ongi va qalbiga
singdirishga qaratilgan ishlarni yangi
bosqichga ko'tarishlari zarur.
Ma'rifatparvar shoirlarimizdan birining
so'zlarini bir oz o'zgartirib aytadigan
bo'lsak, bu borada barchamiz uchun
fikrlash va ishlash zamoni keldi.

**Islom KARIMOV,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti.
(Davomi bor).**

Da'vat

**BAHOR KABI
GO'ZALSIZ**

Har birimizning onamiz go'zal. Ularni
bahorga qiyoslashadi. Shuning uchun
ham bahor oyida onalarimiz bayramini
nishonlaymiz.

Onalarimiz haqida qanchalik ko'p
gapirmaylik, ozlik qilaveradi. Ularning
ko'zlari mehr bilan to'lib toshgan. Biz
farzandlarning kamoli yo'lida tinimsiz
mehnat qiladilar. El sevgan, yaxshi inson
bo'lishimizni chin dildan xohlaydilar.

Ammo biz farzandlar ularning qadriga
ko'pam yetavermaymiz. Yomon
odatlarimiz, no'rin so'zlarimiz bilan
ranjitib ham qo'yamiz.

Aziz tengdoshlar, onalarimiz bizni ko'z
qorachig'laridek asrab-avaylaydilar.
Keling, biz ham ularni asraylik.
Bayramingiz qutlug' bo'lsin, deylik.

**Nilufar SHODJONOVA,
Yunusobod tumanidagi
21- maktabning 9- litsey sinfi
o'quvchisi.**



**8 MART
BUGUN**

Qaldirg'ochni intiq kutdim,
Dasta gulni sizga tutdim.
So'zlarimni shoshib bitdim,
Sakkizinchi mart bugun!

Tabriklayman onajonim,
Sochlari oq jonajonim.
Xushnud o'tar har bir onim,
Sakkizinchi mart bugun!

Sho'xligimdan to'ydingiz-a,
Yolg'on qovoq uyingiz-a,
Bir jilmayib qo'ydingiz-a,
Sakkizinchi mart bugun!

**Jamila
ERDONOVA.**

Obuna - 2002

HALI HAM KECHEMAS

Bu yil sinfimiz bilan «Tong yulduzi»
gazetasiga obuna bo'lganmiz. Uning har
bir sonini birma- bir o'qib chiqyapmiz.
Tengdoshlarimizning maktublari, o'zlari
ijod qilgan she'rlari, boshqotirma-yu
topishmoqlari bizda katta taassurot
qoldiryapti. Shunda biz ustozimiz
Dilfuza opamizdan «Biz ham gazetaga
maqolalar yuborsak bo'ladimi?» deb
so'radik. Ustozimiz esa «Albatta
bo'ladi, buning uchun ko'proq
o'qishingiz, tadbirlarda, tanlovlarda faol
ishtirok etishingiz zarur», dedilar.

Men «Tong yulduzi» gazetasidagi
maqolalardan dadamga o'qib berdim.
O'zim ham unga obuna bo'lishni
xohlayotganimni aytdim. Shunda dadam
xursand bo'lib ketdilar. Bir yillik obuna
uchun pul berdilar. Hozirda gazetamning
har bir sonini mazza qilib o'qib
borayapman.

Siz-chi, aziz tengdoshlar, unga obuna
bo'lishni unutmadingizmi? Unutgan
bo'lsangiz shoshiling, hali ham kech
emas.

**Musayyaxon ABDUPATTAYEVA,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston
tumanidagi 12- maktabning
6 - sinf o'quvchisi.**

XATLAR TEGIRMONI



MEN SHIFOKOR BO'LSAM...

Qadrdonim «Tong yulduzi!»

Kechagina bog'chada mazza qilib o'ynab yurib 1- sinfga borgandik. Kunlar shunday tez o'tib ketayaptiki, go'yo uchar otga o'xshaydi. Bu yil ot yili, mening muchal yilim. Bu yilda tug'ilgan bolalar juda ko'ngilchan va mehnatsevar bo'lisharkan. Shundan bo'lsa kerak, men rus maktabda o'qisam ham o'zbek musiqa maktabiga, sport maktabiga, gimnastikaga va maktabimiz oldidagi tikish-bichish to'garagiga qatnashaman. Bo'sh vaqtimda esa oyijonimga va buvijonimga yordam beraman. Bu yil men uchun juda quvonchli yil bo'ldi desam ham bo'ladi.

A'lo baholarga o'qiganim uchun ham o'qiyotgan maktabimdan, ham musiqa maktabimdan faxriy yorliq oldim. Bu esa Vatanimni, oilamni, maktabimni, qolaversa do'stlarimni sevishga undaydi.

Kelajakda esa bolalar shifokori bo'lishni orzu qilaman.

Men shunday bir sharbat o'ylab topsamu uni ichgan bolalar doimo



sog'lom, mehribon, xushchaqchaq, Vatanga, oilasiga hamda do'stlariga nisbatan sodiq inson bo'lib o'sishsa.

Dunyoda hech qaysi bolaning ko'z yoshi to'kilmasa!..

Sardjina

Chileketova,

Toshkent shahar,

Mirzo Ulug'bek tumanidagi

41 - maktabning

5 - sinf o'quvchisi.

Orzu

JURNALIST BO'LAMAN

Men Surxon vohasining eng so'lim joylaridan bo'lmish Denov shahrida yashayman. Oilada ikkinchi farzandman. Dadam bilan oyim shifokorlar. Ularning kasblari, bemorlar dardiga malham bo'lishlari menga juda yoqadi.

Hozir maktab o'quvchisiman. Hozirdanoq puxta bilim olib, ulg'aygach jurnalist bo'lishni, ota-onam kabi o'z kasbining fidoyisi bo'lgan insonlar haqida ocherklar yozishni orzulayman.

Lobar G'AFFOROVA,

Surxondaryo viloyati, Denov shahridagi

81 - o'rta maktabning

6 - «A» sinf o'quvchisi.

Har gal onajonlarimiz bayrami arafasida bolaligimdagi bir voqea yodimga tushaveradi: Akam ikkimiz juda yosh edik. Bayramga oyijonimizga nima sovg'a qilish haqida uzoq bosh qotirdik. Biror narsa sotib olaylik desak, pulimiz yo'q. Shu payt ko'zim oyimning o'zlari

"ENG YAXSHI SOVG'A"

ekib, mehr bilan parvarishlayotgan tuvakdagi gullariga tushdi. U qip-qizil bo'lib ochilib, ko'rgan odamning zavqini keltirardi. «Mana shu gullarni sovg'a qilsak-chi», degan taklim akamga ham ma'kul bo'ldi. Gullarni uzib, qog'ozga chiroyli qilib o'radik-da, oyijonimizga sovg'a qildik. Oyim gullarni qo'llariga oldilaru darhol tokchadagi tuvakka qaradilar. Jahllari

chiqqan bo'lsa-da, bizga sezdirmay: «Rahmat, bolajonlarim», deya yuzlarimizdan o'pib qo'yidilar. O'sha damdagi xursandchiligimni so'z bilan ta'riflay olmayman. Qosh qo'yaman

de b ko'z chiqarib keyinchalik tushungandik.

Shu o'rinda jajji uka va singilchalarimga bir maslahat bermoqchiman: uylarni tozalab, yumushlarni bajarib qo'ysangiz, oyijoningiz uchun sovg'aning kattasi shu!

Feruza OBIDOVA,

Toshkent viloyati, Yangiyo'l

tumanidagi 2 - o'rta maktabning

9 - sinf o'quvchisi.

BILIMDONLAR GURUNGI

Yaqinda Xorazm viloyati, Hazorasp tumanidagi Furqat nomli 3-o'rta maktabda «Siz qonunni bilasizmi?» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Uni maktab direktori Ilhom Saydametov kirish so'zi bilan ochib berdi. O'quvchilar ona Vatanimiz tarixi, o'tmishi, ko'hna obidalar haqida hikoya qildilar. Prezidentimiz asarlari yuzasidan qiziqarli savol-javoblar uyushtirishdi. Ayniqsa, Lobar Abdullayeva, Sharifboy Matmurodov, San'at Otaxonov, Sadoqat G'ofurova, Zaynab Ro'zimetova, Diyor Otaxonov singari o'quvchilarning chiqishlari barchaga manzur bo'ldi.

Bir maktabdan

ikki xabar

QO'SHIQ BAYRAMI

Yana shu maktabda ajoyib «Qo'shiq bayrami» ham o'tkazildi. Bayramni tayyorlashga kekxa pedagog, ko'plab mashhur san'atkorlarning ustozlari 80 yoshli Iskandar ota Pirmatov boshchilik qildi va o'zining bir juft mumtoz qo'shig'i bilan kechani boshlab berdi. So'ngra shogirdlaridan Diyor Otaxonov, Shaydo Safoyeva, Sharifboy Matmurodov va Sadoqat G'afurovalar o'z qo'shiqlari bilan kechaga fayz kiritdilar.

Bahodir O'RINOV,

Samarqand viloyati, Pastdarg'om

tumanidagi 13 - o'rta maktab

o'qituvchisi.

Ma'lumimgizkim, gazeta sahifalarida «Zirapcha» deb nomlangan ruknimiz bor. O'quvchilar atrofdagi ayrim noo'rin ishlarga befarq qarab tur olmaydilar. Shuning uchun ham o'zlari qoniqmagan ishlar,

- 8- sinflarga ikki nafar kimyo o'qituvchisi dars beradi. Ularning biri 40 yildan beri shu sohada. Ikkinchisi - ularning shogirdi, maktabimizning sobiq o'quvchisi, besh yildan

"ZIRAPCHA" DA BOSILMADI, NEGA?

muammolar yuzasidan gazetamizga maktub yo'llaydilar.

Biroq... «Zirapcha» ga kelayotgan maktublarning hammasini ham to'g'ri deb bo'lmaydi. Masalan, Toshkent shahar, Shayxontohur tumanidagi 169- maktabning 8-sinf o'quvchisi kimyo o'qituvchisini «soxta o'qituvchi»likda ayblabdi. Uning yozishicha, o'qituvchi darslikdan tashqari bo'lgan murakkab, talabalarga mo'ljallangan mavzularda ham dars o'tar ekan. Misol keltirib «Tuzlarning gidrolizi» mavzusini yozibdi.

Bor gap shu. Bu hol o'qishni ko'pam yoqtirmagan o'quvchiga ma'kul bo'lmasligi tabiiy. Ammo ilmga chanqoq o'quvchi darslik bilan chegaralanmasligi kerakligi barchamizga ayon. Shuning uchun ham o'z fanining bilimdon o'qituvchisi qo'shimcha adabiyotlardan foydalanadi.

Biz bu maktubni e'tiborsiz qoldirishimiz mumkin edi. Ammo o'quvchi tahririyatimizga aynan shu mavzuda bir emas, bir nechta maktub yo'lladi.

O'quvchining maktubiga aniqlik kiritish maqsadida maktab direktori Kozim aka A'zamov bilan bog'landik. Darvoqe, Kozim aka o'ttiz yildan beri maorif sohasida, 22 yildan beri esa maktab rahbari bo'lib ishlab kelayaptilar. Demoqchimizki, ular har bir o'qituvchiga xolisona baho bera oladilar.

beri dars berib kelyapti. Ikki o'qituvchimiz ham o'ta kuchli, talabchan, qattiqqo'l,- deya javob berdilar Kozim aka.

Tahririyatdan:

Aziz o'quvchi! Nazarimda siz kimyo fanini o'zlashtirishga ancha qiynalyapsiz. Kimyo-tabiat fani. Mavzular bir- biriga uzluksiz

bog'liq. Birgina mavzuni tushunmasangiz, keyingi darsni o'zlashtirishga qiynalib qolishingiz aniq. Shuning uchun ham o'qituvchingizdan tushunmagan mavzularingizni qayta- qayta so'rang. Shunda «Tuzlarning gidrolizi» ilgari 9- sinfda o'tilgan bo'lsa, yangi Davlat ta'lim standarti bo'yicha bu mavzu 8- sinf darsligiga kiritilganini bilib olasiz.

Sizga maslahatimiz, ko'proq badiiy kitoblar o'qing, she'rlar yod oling, darslarni o'z vaqtida bajarishga harakat qiling. Maktabga faqat bilim olish uchun borayapman, degan fikr sizni tark etmasin. Shundagina bilimingiz kundan- kunga oshib, dunyoqarashingiz yanada kengayib boraveradi. Bu yo'lda sizga sabr- toqat hamroh bo'lsin.

Feruza SOYIBJON qizi.

Qadimdan kulolchilik, ganchkorlik, zargarlik, naqqoshlik, miniatyura kabi san'at turlarini ardoqlab, e'zozlab kelgan san'atsevar xalq farzandlarimiz. Qo'li gul ustalarimiz yaratgan tarixiy obidalar, sopol buyumlaru naqshinkor bezaklar asrlar osha o'z tarovatini, ko'rku jilosini yo'qotmay kelyapti. San'atning bu juda go'zal, shuningdek, o'ta murakkab turlarini o'rganishga intilayotgan yoshlarimiz hozirgi kunda ham juda ko'plab topilayotgani quvonarli holdir.

Yaqinda poytaxtdagi Respublika bolalar ijodiyoti markazida bo'lib, yoshlikdanoq nafis san'atimizga oshno tutinayotgan, ustozlari ko'magida har bir rang, har bir naqsh bezagining jilosidan zavqlanishni o'rganayotgan o'g'il-qizlarni ko'rib, behad



quvondik.

Markazga kirishimiz bilan bolajonlar yasagan tasviriy

san'at, zargarlik, kulolchilik asarlaridan tashkil qilingan ko'rgazmani tomosha qilib, o'zga bir g'aroyib olamga tushib qolgandek bo'ldik. Har bir san'at turi uchun mo'ljallangan alohida xonalar o'z ishi bilan band bolajonlar bilan gavjum. Jamshid Valiyev, Orzu

ORZULARI FAQAT EZGULIK

Agzamova, Oybek Islomov, Eldor Hasanovlar bilan suhbatlashganimizda ularning yaratgan asarlari nafaqat bu yerda, balki Amerika, Hindiston kabi davlatlarda tashkil qilingan ko'rgazmalarda ham namoyish etilgani haqida to'liqinlab gapirib berishdi.

Keyingi xonada kulolchilik sirlarini qunt bilan egallayotgan bir guruh bolalarni uchratdik. Ularga zamonamizning eng zo'r, mohir ustasi Cho'lpon ota saboq berar ekanlar.

- Hormang, Cho'lpon ota! Bolajonlarimiz sizni toliqtirib qo'yishmayaptimi? -

deya suhbatga tortamiz ularni.

- Aksincha, bu dargohga kelsam, kuchimga kuch, g'ayratimga g'ayrat

qo'shilayotganini, yanada yosharib borayotganimni his qilaman. Shogirdlarimning mitti qo'lichalari bilan oddiygina loydan mo'jiza yaratishayotganini ko'rib, zavqlanam. Zero, kulolchilik san'ati hayotimning

mazmunidir...

Bolalarga grafika bilan birga kulolchilik sirlarini ham o'rgatayotgan Gulzora qizim



Sultonovaning saboqlarini, uning har bir so'zini diqqat bilan tinglayotgan yosh hunarmandlarni kuzatar ekanman, bu ko'hna san'atimizning yana uzoq yillar avloddan avlodga o'tib, ardoqlanishi, yanada sayqal topishiga amin bo'laman. Mana shu bolajonlarning bobolari, dadalariga ham o'zim ustozlik qilganimni o'ylasam, mehnatlarim besamar ketmabdi, deya ko'nglimda allanechuk xotirjamlik tuyaman. Shogirdlarimdan ayrimlari men ustozlik qilayotgan uchinchi avlod vakillari. Bundan ancha yillar avval g'ijduvonlik Axtanjon

Hunar - hunardan unar

Muhammedov, so'ngra uning qizi Nodira Muhammedovalar menga shogird tushishgan edi. Hayot charxpalagi aylanib, endi Axtanjonning bir emas, uch nabirasiga ustozlik qilyapman. Usta hunarmand uchun bundan-da

ortiqroq baxt bormi, dunyoda?..

Bu dargohda yana Hikmat aka Jalilov, Shuhrat aka G'iyosov, Ortiq aka Fayziyev, Vositjon aka, Shohida opa, Sergey Sergeevich singari fidoyi o'qituvchilar mehnat qilishadi. Ular umidli shogirdlariga san'at sirlarini o'rgatish bilan birga ularni ona Vatanga muhabbat, sadoqat ruhida tarbiyalashga intilishadi.

Bolajonlar bir siqim tuproqqa mehr bilan ishlov berilsa, buyuk bir san'at asari yaratish mumkinligini yaxshi bilishadi va hech kimnikiga o'xshamas o'z yo'llarini tanlab olish ishtiyoqida izlanishadi.

- Bolajonlar yaxshi so'zning, birozgina e'tiborning gadosi bo'lishadi, - deyilar biz bilan suhbatda markazga boshchilik qilib, barcha xayrli ishlarga bosh-qosh bo'layotgan

Sanobar opa Shodiyeva. - Shogirdlarimiz erishayotgan yutuqlarning asosiy omili ham ana shu e'tiborda deb bilaman. Iqtidorli bolalarimizning asarlaridan ko'rgazmalar tashkil qilib, chet ellarga yuborib, rag'batlantirib turamiz. Ularga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar va e'tiborning mahsulini esa hozirdanoq ko'rib turibmiz. Shogirdlarimizdan umidimiz katta: ular kelgusida otabobolari san'atini ardoqlaydigan, avlodlarga yetkazadigan qo'li gul ustalar bo'lib yetishadilar!..

Aytishlaricha, astoydil qilingan har bir niyat, agar u ezgulikdan iborat bo'lsa, albatta ijobat bo'lar ekan. Uy-ro'zg'or, oila, bolalar tashvishidan ortib, yosh san'at ixlosmandlariga hunar o'rgatib kelayotgan ustozlarning niyatlari ijobat bo'lishiga astoydil tilakdoshmiz. Zero, ularning orzulari faqat ezgulikka yo'g'rilgan.



Feruz
JALILOVA

-Boshqa bolalar singari men ham avval huquqshunos, rassom

keyin diplomat bo'lishni orzu qilardim. Lekin Xorijiy tillar Akademik litseyiga o'qishga kirganimdan so'ng niyatim butunlay o'zgardi. Mening qarshimda aniq maqsad turganini payqadim, ya'ni xorijiy tillardan birortasini mukammal o'rganish - barcha orzularning boshi ekanini his qildim, - deb suhbatni boshladi Azamat Akbarov.

AXBOROT ASRIGA HISSA 20'SHILABDI

- Uch yil davomida koreys tilini o'rgandim.

Nafaqat koreys tili, balki koreys adabiyoti va madaniyati ham juda qiziqarli. Ustozlarim Ziyoda opa Ashurova, Oliya opa, Dilorom opa, Muhabbat opa, Sharafuddin aka, Maya Kimlar biz kabi talabalarga o'z bilimlarini berishda, siyosati iqtisod yangiliklaridan boxabar qilishda kamarbastalar. Men ulardan juda minnatdorman, Ma'lumki, asrimiz axborot asridir. Men kelajakda jurnalist bo'lmoqchiman. Xalqaro yangiliklardan zudlik bilan boxabar bo'lib, uni o'z maqolalarimda aks ettirishni istayman.

Xorijiy tillar Akademik litseyi talabasi

Kamola HIKMATOVA yozib oldi.

Bugunning bolasi

Ma'naviyati barkamol o'quvchilarda milliy g'urur, milliy iftixor, oriyat kuchli bo'ladi. Ular


hozirda nafaqat o'qish va uqish, balki jahon bilan bo'ylashishga harakat qilyaptilar. Akmaljon Abdullayev ham ana shunday bilimga chanqoq, tinib-tinchimas yoshlardan biri. U Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumanidagi 112-maktabning 9-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Akmaljonning deyarli bo'sh vaqti bo'lmaydi. U yurtimiz tarixini yoritib bergan kitoblarni erinmay mutolaa qiladi. O'qiganlari yaqinda bo'lib o'tgan tumanlararo tarix olimpiadasida qo'l keldi va faxrli o'ringa ega bo'ldi. Prezidentimiz Islom Karimov asarlarini o'qib, o'rganib, mag'zini chaqib, ana shu asarlar haqidagi o'zining mustaqil

YO'LLARI YORQIN BOLA

fikrlarini ifoda eta oladi. Tuman miqyosida bo'lib o'tadigan «Prezident asarlarini o'rganamiz» ko'rik-tanlovlarida doimo faxrli o'rin sohibi bo'ladi.

Akmaljonning oilada ham o'z o'rni bor. U onasining beminnat yordamchisi. Otasining o'ng qanoti. Ukalariga maslahatgo'y. Akmaljonning yana bir fazilati borki, u bir maqsadni ko'zladimi, unga yetmaguncha ko'ngli orom topmaydi. U doimo izlanish va ijod bilan mashg'ul. Yurtimizda Akmaljonga o'xshagan tinib-tinchimas, maqsad sari intiluvchan, dunyoqarashi keng, ota-onasiga rahmatlar keltiradigan farzandlarimiz ko'p bo'lsin. Biz ota-onalarga farzandlarimizdan faxrlanib yurish nasib etsin.

Tuhfaniso ORTIQBOY qizi.



XUSH KELDING, BAHORI!



O'lkamizni yashnatib bahor keldi! Yana qushlar sayradi, qaldirg'ochlarning chug'ur-chug'uri olamni tutdi. Hamma yoq yasharadi, yana gullar, maysalar uyg'onadi. Har bir fasldan o'zgacharoq tarovatda keladigan bahor qaysi ko'ngilni chetlab o'tadi deysiz. Bahorning ilk kunlarida onajonlarning, opa-singillarimizning bayramini aytmaymiz. Mening maktabda juda ham dugonalarim ko'p. Men ularga sovg'a sifatida barcha tilaklarimni gazeta orqali bildirmoqchiman.

Aziz dugonalar, onalar, opa-singillar! Siz qor tagidan endigina yorib chiqayotgan go'zal binafshaga o'xshaysiz. Siz doim go'zalsiz, latofatlisiz. Ana shu go'zallik hech qachon hech biringizni tark etmasin. Shuningdek, men 35-o'rta maktabdagi barcha ayol ustozlarimni ham bayramlari bilan tabrikamoqchiman. Mashaqqatli ishingizdan hech qachon charchamang. Taningiz sog' bo'lsin. Quvonch doimo sizga hamroh bo'lsin!

Zemfira AMETOVA,


Parkent tumanidagi 35- o'rta maktabning
9- sinf o'quvchisi.

Hazil she'rlar

REYTING

Qayerdan ham chiqdi shu reyting,
Ishlashing kerakdir tinmay.
Hali uy vazifa, konspekt,
Referat, diktantmi yoki test.

Chorakda chopib yuraman,
O'lganim kundan kulaman.
E, reyting sira bo'lmaydi,
Yig'sam ham «5» ga to'lmaydi!



Ustoz ijodi



MASLAHAT

Hademay, yil tugar, imtihon yaqin,
Birma- bir fanlardan qilinar hisob.
Imtihon - fanlarning oynasi demak,
Ha, endi «oshnamiz» bo'ladi kitob!

Imtihonda «5» olish osonmas tayin,
Bir sirning kalitin sizga aytayin.
Bosh og'ritib yurish kimga ham kerak,
«Shpargalka» joningga tirgak.

Darsdan qochib turish foydadan kmmas,
Kim ochiq havoni -davo deganmas?
O'zni ko'p qiynama, e qovoq kalla,
-Xo'p bo'ladi, dedingmi, e, barakalla!

M. Isomiddinova.

DIQQAT: «VARRAKLAR BAYRAMI»

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi Vazirligi tasarrufidagi Respublika o'quvchilar texnik ijodiyot Markazi «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati bilan hamkorlikda «Varraklar bayrami» o'tkazishni ma'lum qiladi. Bayram 26 mart kuni poytaxtimizdagi «Bog'i Eram» istirohat bog'ida bo'lib o'tadi. Unda maktab o'quvchilari o'zlari tayyorlagan varraklari bilan ishtirok etadilar. Musobaqada qatnashadigan modellarning sinfi:

- Laylak;
- Varrak;
- Hajmli;
- Eksperemental.

Milliy o'yinlarimizdan bo'lgan «Varraklar bayrami»ni o'tkazishdan maqsad o'quvchi yoshlarni milliy an'analarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, shuningdek turli xildagi varraklar namoyishini musobaqa tarzida tashkil etishdan iboratdir.

Musobaqa g'oliblarini ajoyib sovg'alar kutmoqda. Bayramga shoshiling!


Tanlovda qatnashish uchun iltimosnomalar 2002 yil 15 martgacha (soat 9.00 dan 17.00 qadar, shanba va yakshanba kunlaridan tashqari) quyidagi manzilda qabul qilinadi:

Toshkent shahri, 700069. Oorasaroy ko'chasi

Z. Boboxonov tor ko'cha, 13-a uy. Respublika

o'quvchilar texnik ijodiyot Markazi. telefon 481171.

482647, faks 485269.



Barchangizga ma'lumki, 1994 yili Respublika o'quvchilarining «Tabiat: kecha, bugun va ertaga» nomli ilmiy-tadqiqot ishi joriy etilgan edi. 2001 yilda esa Osiyo rivojlanish banki yordamida Buyuk Britaniya ish tajribasi o'rganildi. Jeyms Xayndson ko'magida Inson va atrof-muhitni o'rganish bo'yicha qo'llanmalar yaratildi. Bu yil esa O'zPFITI ilmiy

jilvasi» ko'rik-tanlovida 1000 ta maktab, har bir maktabdan 30 o'quvchili guruh qatnashmoqda. Ishtirokchilarga bepul ishchi tadqiqot daftari, O'qituvchi qo'llanmasi va 3 ta plakat RTM salomatlik va ekologiya bo'limi boshlig'i Go'zalxon

TOZA SUV MUAMMOSI

xodimi Erboy Turdiqulov va Jeyms Xayndson birgalikda XTB (Xalq ta'limi bo'limi), RTM (Respublika ta'lim markazi) tomonidan tashkil etilgan tanlov uchun qo'llanma va tadqiqot daftari yaratdilar. Maqsad - uy va maktabda suvni tejashga o'rgatish. Chunki suvdan ehtiyot bo'lib foydalanilmasa, isrofgarchilikka yo'l qo'ysak, 2010 yilga kelib suv muammosi yanada kuchayadi. «Tomchi suvda hayot

Solihova tomonidan tarqatilmog'ida.

Ko'rik-tanlov 2002 yil mart oyida yakunlanadi. G'oliblarga, shuningdek har bir o'quvchiga sertifikat va maxsus sovrin berish mo'ljallangan. Shahar, Respublika bosqichlarida ham maxsus sovrinlar bo'ladi. 22 mart butun dunyoda suvni tejash kuni deb e'lon qilinishi, bu tanlovning o'tkazilishi o'quvchilarni suvdan oqilona foydalanishga undashi bilan ahamiyatlidir.

Maxmuda ZOYIRXON qizi.

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 27 fevral Qaroriga asosan shu yilning 1 martidan 31 martiga qadar Respublikamiz miqyosida «Harakat xavfsizligi oyligi» boshlab yuborildi, - deydi Toshkent shahar, Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasi Yo'l Harakati Xavfsizligi Boshqarmasi targ'ibot va tashviqot bo'limi inspektori, militsiya kapitani Oybek OTABEKOV.

- Ushbu oylik «Mahalla» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati, Xalq ta'limi Vazirligi bilan hamkorlikda o'tkazilyapti.

Tadbirni o'tkazishdan maqsad yo'llarda sodir bo'layotgan transport hodisalarini oldini olishdir.

Yil davomida ko'plab bolalar ishtirokida transport hodisalarini sodir bo'layapti. Bunday noxush voqealarning kelib chiqishi asosan ota-

PIYODA - UMIRING BO'LSIN ZIYODA

onalarning befarqligidadir. O'tgan yilning o'zida 675 ta baxtsiz hodisa ro'y bergan bo'lsa shundan bir nechtasi o'lim bilan, qolganlari og'ir jarohatlar bilan tugagan. Shuning uchun ham bunday tadbirlarni o'tkazish ayni muddadir.

Bizning xodimlarimiz har bir maktab, bog'chalarga biriktirilgan. Ular bolalar bilan yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha suhbatlar uyushtiradilar. Turli tadbirlar, viktorina savol javoblari o'tkazadilar.

Shuningdek, ayrim maktablar atrofiga «svetofor» o'rnatishda



Ko'zingga qara! Ko'cha o'rtasidan yugurib o'tma, yosh umringni xazon qilma!

bosh bo'ladi. «Yosh bolalarga yo'llardan o'tishga yordam bering», «Diqqat: yo'lda mashina», «Piyoda- umring bo'lsin ziyoda» kabi shiorlar iladilar.

Bundan tashqari bizning targ'ibot avtobusimiz ham bor. Bu avtobus mikrofon orqali yo'llarda harakat xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi. Transport hodisalarini ro'y berayotgan joylarni ko'zdan kechirib, xavf oldini olish choralarni ko'radi.

Yana bir gap. Bizning homiyligimizda «Qaldirg'och» musiqali teatr-

Harakat xavfsizligi oyligi

studiyasi tashkil etilgan. Ayr. kunlarda ular «Yalmog'iz kampir chorrahada», «Guli va mittivoy» kabi spektakllarni sahnalashtirishgan. Bu spektakllar iloji boricha har bir maktab va bog'chalarda namoyish etiladi.

Ushbu oylikda faol ishtirok etgan maktab o'quvchilari, bog'cha bolalari O'zbekiston kanalida berilayotgan ko'rsatuvida ishtirok etadilar. Faollikni Yunusobod tumanidagi bir qator maktablar va 301- bolalar bog'chasi tarbiyalanuvchilari boshlab yuborishgan. Sizlar ham yo'l harakati xavfsizligi oyligida ishtirok eting. Yo'l qoidasi-umr foydasi ekanligini yodda tuting.

F. ODILOVA yozib oldi.

Dunyoda shunday bir ulug' zot borki, biz undan umrbod qarzdormiz. Bu buyuk inson onaizorimizdir. Barchamiz uchun aziz va mo'tabar bo'lgan onajonlarimiz ayyomi kunlarida ularga aytar samimiy so'zlarimiz, dil izhorlarimiz bisyor. Axir onalarimiz bizlarni o'zlari yemay - yedirib, kiymay - kiydirib, hatto shamolni ham ravo ko'rmay, ardoqlab voyaga yetkazadilar. Komil inson qilib tarbiyalaydilar. Ular bir qo'llari bilan beshikni, ikkinchi qo'llari bilan dunyoni tebratadilar. Ha, bu mening onam, sizning onangiz, bizning onalarimiz.


Aziz onajonlar! Siz bosib o'tgan yo'llar shonlarga to'liq. Sizning har odimingiz biz uchun hayot maktabidir. Uyimizning nurafshon quyoshisiz. Mening oppoq tilaklarim ichra yonib turgan nursiz.

Olam munavvarligi sizday hayoli, iboli, mehri daryo onalarimiz borligidandir. Axir siz emasmi, bizlarga hayotni

Mehribonim, suyanchig'im onajon! Gohida noo'rin gaplarim, qo'pol hatti-harakatlarim bilan nafis qalbingizni

ONAJON, SIZGA TA'ZIM!

sevishni, odamlarni ardoqlashni, Vatanga bo'lgan sadoqatni saqlashga o'rgatgan?! Onalik olamingizning ko'z ilg'amas sarhadlariga termulib, aqlim shoshadi, irodam, shuurim bilan ta'zimga egilaman.



jarohatlab qo'yaman, dilingizga ozor beraman. Shunda siz hafa bo'lasiz, ammo yana peshonamni silab erkalaysiz, chunki siz mening, faqat mening onajonimsiz!..

Ba'zida bolalik damlaringa qaytgim keladi. Tunlari aytib bergan ertaklaringizni eslayman. Siz aytgan allalar hamon yodimda:

Dil izhori

Alla aytay jonim bolam,
Orom olgin alla-yo.
Ko'zlarini yumib bolam,
Uxlab qolgin alla-yo...

Onajon, sizni shunchalar yaxshi ko'ramanki, ba'zida yuzingizga yuzimni qo'yib, o'yg'a tolaman: Qachonlardir sizning ham yuzingiz tiniq, qo'llaringiz yumshoq va mayin, qirov qo'ngan sochlaringiz ham qop-qora, uzun bo'lgandir-a?.. Bugun sochlaringizga oq oralabdi, yuzingizga ajin tushibdi, qo'llaringiz mehnatdan qadoq bo'libdi, ona. Lekin siz shunda ham go'zalsiz, dilbarsiz. Dunyodagi eng latofatli ayol - mening onajonimsiz!

Adolat G'AYRAT qizi,
O'z.MU talabasi.

Osmon to'la yulduzlar birdan siyraklashib qoldi... Avvallari Otash ularni sanab ado qila olmasdi. Endi esa... sanog'liqqina. Bir...ikki... uch... U hovlidagi daraxtlardan sal nariroq o'tib, osmonga, uzoq-uzoqlarga qaradi. Boyadan beri hammaga ko'rinmayotgan joyda allaqanday yulduz nimtatirgina jimilladi. Otash uyga kirib yozuv stoli ustidagi daftariga allanimalarni yozib qo'ydi. Yozgan sari kayfiyati ko'tarilar, yozgan sari fikrlari quyilib-quyilib kelardi. U ko'pincha o'ziga o'zi: «Yozuvchilar qanday qilib yozisharkin?» deb savol berardi. Rosti, hozir o'zi ham hayron qolayapti. So'zlar go'yo: «meni tezroq yozgin», deya shoshirib tashlashyapti. Yana ular oddiygina emas, o'z sifatleri bilan tasvirlanib, yozilib ketyapti.

Otash tuyg'ularini daftarga tushirib bo'ldi shekilli, uni yopib o'rnidan turdi. Rejasida shundaygina ikki hovli naridagi sayxon joyga chiqib, osmonu falakka nazar tashlash!

Unda ko'rgan sirlarini diliga jo qilish.

Otash ko'chaga chiqdi. Sayxonlikka o'tdi. Bunday paytda unga ukasi ham ergashadi. Oyisi ham «hamroh bo'lsin» deydi. Otash e'tiroz bildirmaydi. Sayxonlikni deyarli hamma maydon deydi. Buvisi «ins-jinslarga ehtiyot bo'l, bevaqt yurma unaqa joylarda» degani-degan. Otash buvisi aytganini qiladi. Maydonga borayotganida ollohga iltijo

qiladi. O'zi panohida asrashini, ishi o'ngidan kelishini so'raydi. Har gal maydonga chiqqanida nimaningdir ilinjida bo'ladi. Nimanidir kutadi. Yo'q, u «uchar likopchalar»ga umid bog'lamaydi.

O'zga sayyoralardan kelgan «mehmonlar»ni uchrataman, deb orzu qilmaydi. U bir narsaga intizor boqadi Osmonu falakka! Yulduzlarga!

U falakka kirgan sari mo'jizalar olamiga kirganga o'xshayveradi. Ba'zan tepasida bulutlar qunduz yoqali palto kiygan odamlarga o'xshaydi. Ayniqsa, chovgon o'ynayotgan bolaga o'xshash bulutni ko'rganda, anqayib qoladi. Birdan bulutlar dengiz to'lqinini eslatib yuborishadi. Otash uchun eng qizig'i, bulutlarning qay tomonga qarab suzishi bo'ladi. Unga qarab ko'pincha ertaga ob-havo qanday bo'lishini aniqlaydi. «Qara-chi bolam, bulutlaring toqqa suv ichgani ketishyaptimi?», deb so'rab qoladi buvisi. «Bulutlaring» deganiga Otash o'zicha xursand bo'lib qo'yadi. Demak, buvisi uning osmon bilan qiziqishidan xursand. Otash oldin «fazo» derdi. Buvisi «Qo'y, bolam, osongina «osmon» deyaqolgin», dedi. Otash buvisining so'zini yerda qoldira olmaydi, «osmon» deydigan bo'ldi...

Otash maydonda yayrab-yayrab nafas oldi. Qani endi cheki yo'q osmon uning

bag'riga sig'sa-yu quchsa. Afsus buning sira iloji yo'q. U shunchalar keng, shunchalar cheksizki... Qani endi qanoti bo'lsa-yu uchib ketaversa...

**Osmon osti, yerning usti,
Uyimizdir, uyimiz.
Yo'qotmoqlik kamu ko'stin
O'yimizdir, o'yimiz!**

OTASH

Hikoya

Oyga yetib borsa... Hozir osmondagi to'lingina oy uni o'ziga chorlayotgandek. Tip-tiniq, juda chiroyli. Ertaklardagi go'zal mashinalarni oyga o'xshatishgani rost ekan-da... Bordi-yu u qachonlardir oyga



uchib borsa, Amerika astronautiga eshitilgan tovush unga ham eshitilarmikin? Turib-turib bu mo'jizali olamga hayron qoladi. Ishonmay desa, baribir ishonadi. Bir uchrashuvda astronautning

Yayra SA'DULLAYEVA

o'zi aytib bergan ekan-ku. O'shanda Armstrong Misrga mehmon bo'lib kelgan ekan. Uchrashuv oxirlab qolganda uning qulog'iga sel qiluvchi, yoqimli ovoz eshitilibdi. U tashqaridan kelayotgan ovozga mahliyo bo'libdi-yu rangi qum-qut o'chib ketibdi. Keyin birdan seskanib,

hayajonini bosa olmay qolibdi. Jon holatda qanday musiqa ekanini so'rabdi.

Mezbonlar unga bu musiqa emasligini, balki azon aytilayotganini, u odamlarni namoz o'qishga chaqirayotganini tushuntirishibdi. Shunda astronaut yana ham kuchliroq hayajonlanibdi. Uning gapini eshitganlar esa, undan ham ko'proq hayratga tushishibdi.

-Bu ovoz ... oyga ilk qadam qo'yganimda eshitilgan va meni seskantirgan ovoz-ku! U uch-to'rt daqiqa jim bo'lib qolibdi.

Yaqindagina avval eshitib, o'qigandan keyin ishongani - bu voqea esiga tushdi-yu o'zi ham titrab ketdi. Ukasini bag'riga olib, oyga bir zum tikilib qoldi. Oymoma parizod qiyofasida uni go'yo o'ziga chorlardir. «Kel, kelaqol, qo'rqma».

Uning kipriklari pipirab, ko'zlari jilmayib boqardi. «Borardimu o'qishim bor-da». Oymoma mayingina suzib borayotgandek edi. Xayolini ukasining gapi buzdi:

-Aka, daftaringizga yozib

qo'ying,- bugun bitta yulduz uchdi.

Otash ukasi ko'rsatgan tomonga qaradi va minnatdor bo'lgandek uni quchib qo'ydi.

-Aka, nega yulduzlar kamayib ketayapti?- so'rab qoldi ukasi.

-Ular kamaymaydi. Faqat kam ko'rinishadi-da.

-Nega?

-Ana shu negaligi meni ham o'ylantirayapti-da, uka. Mana, deylik. Sen yuzingni yuvmading, kir bo'lib ketadimi?

-Ketadi.

-Menimcha, buyam shunga o'xshaganroq bo'lsa kerak. Aslida yulduzlar quyosh nuridan yaltillab ko'rinadi. Hozirchi, ko'cha kuydan, har xil zavodlardan, mashinalardan chiqqan chang-to'zon, tutunlar tepaga ko'tarilaverib osmon bilan oramizga parda tutib qo'yganga o'xshaydi.

-Pardani olib tashlasa bo'lmaydimi?

-Uning uchun hech kim papiros chekmasligi, mashina, avtobuslar tutun chiqarmasligi kerak.

-Dadamlar ham chekmasliklari kerakmi?- dedi-yu ukasi o'ylanib qoldi. Dadasiga aytsa nima qiladi. Dadasi o'rtog'iga, o'rtog'i yana o'rtog'iga aytardi. Akasiga fikrini aytgandi, u kulib qo'yaqoldi. Bu kulgu ukasiga g'alati tuyuldi.

Koshki edi faqat shu bo'lsa! Katta-katta zavodlar-chi, ulardan chiqadigan isni kim to'xtatadi? Katta-katta sinovlar-chi?! Yana... yana boshqa sabablar ham bordir? Otash buning ham tagiga yetadi. Sal kattaroq bo'lib olsin-chi.

Bilimim shu yerga yetib keldikim,
Bilimsizligimni endi tushundim.
Abu Shukur Balxiy

Ushbu ruknni Rustam OBID olib boradi

Buyuk kishilar olmos yanglig'
noyob va shu qadar serjilodir.
Sharq naqli

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

Chini bilan nozik va zakiyona xushomad, jozibali qulluq va sidqidildan mutelik davri edi u. Xudo har kimga ham beravermaydigan ilohiy ne'mat - ijod tuyg'usi sohiblari noyob iqtidorlarini tuproqqa qorishtirib, o'tkinchi dunyodagi zo'ravonlar oyog'ini o'pishardi.


Sirakuzalik yosh olimning erkka tashna, ilmga chanqoq mag'rur ruhi bu biqiq muhitda nafas ololmay isyon ko'tardi. Jaziramada qum yomg'ir suvlarini yutoqib singdirganiday bilim chashmasini to'yamay simirayotgan Arximed o'sha zamonda dunyodagi yagona va eng boy xazina bo'lgan Iskandariya kutubxonasidagi bebaho qo'lyozmalarni o'rganishdan ham voz kechib, uyga, qadrdon Sitsiliyasiga yo'l oladi.

Balki yosh olim ko'hna Misr

keldiki, keyinchalik uni statistika sohasi deb atashdi va shu mustahkam poydevor ustida mexanikaning osmono'par ulug'vor inshootini barpo etishdi.

Arximed Sirakuzada katta obro'e'tiborga sazovor bo'lib, maydachuyda tashvishlarsiz, kundalik turmush ehtiyojlari uchun mablag'ga zoriqmaydigan holda yashay boshlaydi. Qolaversa, u hisob-kitoblarga butun borlig'i bilan berilib ketgani bois o'zining turish-turmushi haqida deyarli o'ylamasdi ham. Turgan gapki, uning g'anamlari

vazifani topshiradi. Va olim kecha-yu kunduz shu to'g'risida bosh qotira boshlaydi. Butun o'y-xayollari yechimi



bilan band bo'lgan Arximed bir kuni

qay tarzda erishganini biz hech qachon bila olmaymiz.

Arximedning astronomiya,

geometriya, mexanika sohalaridagi xizmatlari bag'oyat ulug' va beqiyosdir. Ammo unda ixtirochilikka bo'lgan ishtiyoq, o'zi kashf etgan qonuniyatlarni amalda joriy

qilish istagi hamma narsadan ustun edi. Umuman, ilm-fan tarixida bu olim shu qadar noyob hodisaki, unda yuksak nazariyotchi bilan mohir muhandis bir-biriga chuqur singib ketgan. Binobarin, hozirgi kunda qadimgi Rim muarrihi Plutarxning quyidagi ma'lumotlarini hayajonsiz o'qish qiyin.

GEOMETRNING URUSHI

Rim sarkardasi Marsel Sirakuzaga 40 ta kemada katta lashkar tortib kelayotgani haqidagi xabar orolda vahima uyg'otadi. Aholining ko'pchiligi jangga yaramaydigan kasallar, ayollar va yosh bolalardan iborat edi. Jangga yaroqli erkaklar qurollanib, shahar devori ustida dengiz tomonni qo'riqlab yotishar ammo yirik qo'shinga bas kelishdan umid yo'q edi. Biroq mudofaachilar orasida Arximed ko'rinmas, «tentak geometrning qo'lidan nima ham kelardi?» deb chaqirmaganlari ham ehtimol.

Lekin olim bu tahlikali vaziyatda qo'l qovushtirib o'tirishni ep ko'rmay, ona shahrini o'z bilganicha himoya qilishga bel bog'lab, ajoyib bir qurilma yaratdi. U chetlariga ko'zgu parchalari yopishtirilgan doira shaklidagi mashina bo'lib, Quyosh nurini yig'ar va bir chiziq bo'ylab istalgan yerga yo'naltira olardi. Ammo sirakuzaliklar olimning bu kashfiyotini tushuna olishmaydi.

- Boshimizga falokat kelayotganida sening o'yinchog'ingga balo bormi? - dedi lashkarboshi xafa bo'lib. Shunda Arximed mashinasining kuchini ko'rsatish uchun 500 qadamcha naridagi daraxt shoxiga bir parcha latta ildi. Hamma uning navbatdagi «jinniligi»ni jilmayganicha kuzatib turishardi. Arximed esa pinagini ham buzmay, Quyoshga bir qarab oldi-da, uskunasi muruvvatini burab, uning laganchasini lattaga qaratdi. Jamlangan Quyosh nuri ta'sirida latta lov etib yonib ketdi.

(Davomi bor).

RIMNI YENGGAN OLIM

«Arximed ovqatlanishni ham unutib qo'yadi, uzoq vaqtlar hammomga bormaydi, duch kelgan yerda - chang, kul, qum ustida va hatto o'z badaniga

hammomga borib, suv to'la vannaga tushganida ma'lum miqdordagi suv tashqariga toshib chiqadi. Shu lahzadayoq olimning miyasidan suyuqlikka tushirilgan jismga uning og'irligiga teng miqdordagi kuch ta'sir ko'rsatadi, degan fikr yarq etib o'tadi. Bu olamshumul kashfiyoti ta'sirida butun dunyoni unutgan Arximed qipyalang'och holda hammomdan otilib chiqib, Sirakuza ko'chalarida «Evrika!», «Men topdim!» deb g'olibona hayqirgancha saroy tomon yugurib ketadi. Chindan ham zargarlarga berilgan oltinning umumiy miqdori ma'lum bo'lgani holda taxtni butunisicha suvga tushirib, toshib chiqqan suvning og'irligini aniqlash mumkin edi. Arximedning bu qonuniyati quyidagicha ta'riflanadi: «Suyuqlikka botirilgan har qanday jismga uning o'zi siqib chiqargan suyuqlikning og'irligiga teng bo'lgan va yuqoriga intiluvchi kuch ta'sir ko'rsatadi. Siqib chiqarilgan suyuqlikning og'irligi shu suyuqlikka botirilgan jism og'irligidan ko'p bo'lsa, jism suyuqlikka botmaydi, agar kam bo'lsa, jism cho'kib ketadi».

Buni hozirda maktab o'quvchisi ham yaxshi biladi, lekin 2300 yil muqaddam tabiatdagi shu qonunni kashf etmoq uchun Arximeddek olimning aql-zakovati kerak bo'lgan!

Xullas olim atrofidagi odamlarning har xil gap-so'zlari-yu kelgusi avlodlar nima deyishiga ham zarracha qiziqmagan. Bu esa, afsuski, ko'p hollarda ayanchli oqibatlariga olib kelgan. Misol uchun Arximed o'z ilmiga nihoyatda ishongani bois noyob fikrlarini hatto qog'ozga tushirib qo'yishni ham lozim topmagan, kelgusi avlodlar uning kashfiyotlarini tushuna olmay boshi qotishi mumkinligini hatto xayoliga ham keltirmagan. Ana shu sababli ham matematika tarixida ildiz chiqarish qoidalari kashf etilishidan ko'p zamonlar burun qadimgi dunyoning bu olimi juda katta sonlardan kvadrat ildiz chiqara olishga

bo'lar-bo'lmas chizmalar chizgani-chizgan», degan mish-mishlar tarqatishardi. Bu xil maydachuyda gaplarga olimning xayoli parishonligi, ijod va ilm ummoniga sho'ng'ib ketganidan atrofdagi dunyoni unutib qo'yishi ham sababchi edi, albatta.

EVRIKA! - MEN TOPDIM!-DEGANI

Ana shu voqealardan biri tarixda qolgan va 2000 yildan beri butun dunyo Arximed deganda o'shani eslaydi. Sirakuza hukmdori o'zi uchun oltindan taxt yasattiradi. Ammo u bitgach, zargarlar ularga berilgan oltinning hammasini ishlatmay, bir qismini urib qolishgan va o'rniga mis aralastirishgan, degan shubhaga boradi. Biroq taxtni buzmay turib, buni qay tarzda aniqlash mumkin? Hukmdor Arximedga ana shu



zaminini tark etishiga qadimgi yunon olimi Arastuning o'sha kezlari bu hududda keng rasm bo'lgan va mexanikani shunchaki bir «hunarmandchilik manbai», qullarga xos mashg'ulot deb bilgan qarashlariga qo'shila olmagan ham sabab bo'lgandir? Zotan, aynan shu mexanika, go'zalligi va jozibadorligi bo'yicha geometriyadan aslo qolishmaydigan maftunkor ilm sohasi uni o'ziga tobora ko'proq jalb etardi. Bo'lg'usi buyuk mexanik olim richag qonunlarini tom ma'noda koinot qonunlari deb tushunardi va shu sababli ham mexanika bo'yicha qadimgi Misr olamini rom etsa arzigudek ma'qulot va teoremlarning butun boshli bir zanjirini yaratdi. Arximed Sirakuzaga shunday bir yangi fan asoslarini olib


- Bizning viloyatimizda ham bolalar ishtirokida tadbirlar, ko'rik-tanlovlar, musobaqalar bo'lib turadi. Bu tadbirlar ko'pincha bolalarning tashabbusi bilan uyushtiriladi, - deydi

Farzandlarimiz o'ta qiziquvchan, bilimga chanqoq, qobiliyatli bolalar. Faqat ularga ozgina e'tibor berilib, o'qib- o'rganishlari uchun shart-sharoit yaratilsa kifoya.

ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Ko'rgazmaga qo'yilgan asarlarda asosan, Vatan tasviri, qadimgi minoralar

JARQO'RG'ON - YETMISH BESH YOSHDA

Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani «Tasviriy oyina» Ijodiy Uyushmasi boshlig'i Murod aka MENGATOV.



Yaqinda «Tasviriy oyina» Ijodiy Uyushmasi bilan hamkorlikda Jarqo'rg'on tumanining yetmish besh yillik yubileyi keng nishonlandi. Unda tumanda joylashgan har bir maktab o'quvchilari va kollej talabalari qatnashishdi.

O'quvchilar Surxon vohasining tarixi, u yerdan yetishib chiqqan olim va olimalar, yozuvchi va shoirlar haqida ko'plab ma'lumot oldilar.

Shu bilan birga yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan yoshu keksalar o'rtasida rasmlar

tarixi, O'zbekistonimiz bayrog'i aks ettirildi.

Ko'rgazmada Alisher Navoiy nomli 7-, Amir Temur nomli 2- o'rta maktab o'quvchilari hamda hunar- texnika ga ixtisoslashgan 22- kollej talabalari faol ishtirok etdilar.

Eng sara asarlar Navro'z ayyomida tashkil qilinadigan rasmlar ko'rgazmasidan joy oladigan bo'ldi.

Bu kabi tadbirlar farzandlarimiz qalbida Vatanni yanada sevishta, uni



asrab- avaylashga o'rgatishi shubhasiz.

Alisher ABDULLAJONOV yozib oldi.

«Dunyo va bolalar» ko'rsatuvining BO'SH O'TIRMA YMAN

Ibrohim Rahimboyev 1988 yilda Sirdaryo shahrida san'atkorlar oilasida tug'ilgan. Hozirda Glijer nomli Respublika o'rta maxsus musiqa maktabining 8-sinf o'quvchisi.

- Ikki yildan beri «Bulbulcha» jalar va o'smirlar xoriga qatnashaman, -deya suhbatni boshladi Ibrohim. - «Yangi avlod» studiyasining bosh rejissyori Ulug'bek aka

G'iyosov taklifiga binoan «Bo'sh o'tirma» ko'rsatuvining «Landi-landi» sahifaiga boshlovchilik qilgandim. O'shanda dastlab «Xo'roz jangi» o'yinini taqdim etganman. So'ngra Noila opa To'laganova «Dunyo va bolalar» ko'rsatuviga taklif qildilar. Bu ko'rsatuv mazmun, mohiyati va saviyasi jihatidan juda yuqori.

-Bo'sh vaqtingizda nimalar bilan mashg'ul bo'lasiz?

-Bilasizmi, oilamizning yarmi san'atkorlar bo'lsa, yarmi harbiylar. Harbiy bo'lgim ham keladi-yu biroq san'atkor bo'lishga ko'proq qiziqaman. Asosan qo'shiq kuylash bilan band bo'laman. Ustozlarim Faina Ivanovna, Olga Prixodko, Tatyana Nikolayevna, Olga Nikolayevnalardan san'at sirlarini o'rganishga harakat qilaman. Orzuim - kelgusida ko'zga ko'ringan san'atkor



bo'lish.

-Niyatlaringiz ijobat bo'lishiga tilakdoshman.

Hilola ABDURAZZOQOVA yozib oldi.

O'G'IL BOLANING ISHI

Mening ismim Farruh. 9-sinfda o'qiyman. Oilada ikki kishimiz. Ya'ni onam va men. Oyijonim meni yolg'iz katta qilganlar. Zavodda ishlaydilar. Meni to shu yoshga kirgunimcha asrab avayladilar, o'zlari yemay, menga yedirdilar. Maktabda yaxshi o'qiyman. Hatto matematika fanidan olimpiadaga ham qatnashdim. Oyijonim mening yutuqlarimdan doim xursandlar. Sinfimizda qizlarga nisbatan o'g'il bolalar ko'p. O'rtoqlarim darsdan so'ng maktab sport maydonida futbol o'ynashadi. Men esa... Oyim ishdan kelgunlariga qadar uylarni tozalab, ularga ovqat ham pishirib qo'yaman.

Bir kuni uy tozalayotganimda sinfdoshim Shuhrat futbol o'ynashga chaqirib qoldi. Men unga bora olmasligimni, buning ustiga oyim bugun ishdan kech kelishlarini aytdim. U esa meni masxara qilib kuldi.

-Qiz bolamisan, uy tozalab, ovqat pishirasan? Oying kelsalar, o'zlari qiladilar-ku, -dedi.

Men uning gaplariga quloq solmadim. Chunki xuddi shu hol avvalroq ham qaytarilgan, men

do'stlarimning gaplariga quloq solib futbol o'ynashga ketib qolganimda, bechora oyijonim ishdan kelib ovqat qilib, charchaganlaridan ovqatlanmay ham uxlab qolganlar. Shunda ularning ahvollarini ko'rib, o'zimga- o'zim hech qachon unday qilmaslik haqida so'z bergan edim. Mana, o'shandan beri ular ishdan kelgunlaricha men uy yumushlarini bajarib qo'yaman. Lekin do'stlarim meni noto'g'ri tushunishadi. Qiz bolalarning ishini qilishimni doim gapirib yurishadi. Men baribir uyalmayman. Chunki men bu ishni oyijonim uchun, qolaversa, o'zim uchun ham qilaman. Oyijonimning xursandliklari menga hamma narsadan ustun turadi.

Farruh IBROHIMOV, Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani.

UYGA QAYTING, KELINOYI

Biz oilada besh farzandimiz. Avval katta akamlarning, keyin opamlarning to'yini qildik. Dadam bilan oyim xo'jalikda oddiy ishchi bo'lib ishlashadi. Bundan to'rt oy muqaddam akam qizlik bo'ldilar. Menimcha, oilamiz

uchun o'sha kun eng baxtli kun bo'lib qoldi. Endi bizning ham uyimizdan chaqaloq yig'isi eshitilar, chaqaloq esa qo'ldan- qo'lga o'tardi. Nima bo'ldi-yu, kelinoyim qattiq kasal bo'lib qoldilar.

Buning ustiga chaqalog'imiz ham yig'loq bo'lib qoldi. Oyim bilan dadam ularni kasalxonaga olib borishdi. Ular kerakli muolajalarni olishdi. Oradan ancha kun o'tgach, kelinoyim yana kasal bo'lib qoldilar. Buni eshitgan quda xolam kelinoyimni uylariga olib ketib qoldilar. Chaqaloq esa biz bilan qoldi. Oyim chaqaloqning ustida kecha-yukunduz parvona bo'lardilar. Lekin

chaqaloq yana isitmalay boshladi. Bu orada quda xolamning uylariga oyim bilan dadam bir necha martadan borib keldilar. Lekin quda xolam kelinoyimni uyga yubormabdilar. Isitmasi baland chaqaloqni oyim shifokorga olib bordilar. Shifokorlar esa chaqaloqni Toshkentga olib borib jarrohlik yo'li bilan davolash kerakligini, qorning pastki qismida grijasi borligini aytishibdi. Bu gapdan keyin oyim bilan dadamning ne ahvolga tushganini ko'rsangiz edi... Xullas, chaqaloqni kasalxonaga yotqizishadigan bo'lishdi. Bu safar quda xolamnikiga akamning o'zlari bordilar. Lekin ular akamni ostonasiga ham kiritishmabdi. Kelinoyim esa biznikiga kelishni xohlamabdilar. Oyim chaqaloqni kasalxonada o'zlari olib yotadigan bo'ldilar. Mana, hammasi ortda qoldi. Chaqalog'imiz ham ancha sog'ayib qolgan. Men esa kelinoyimni uyimizga qaytishlarini, avvalgidek uyimizning fayziga fayz qo'shishlarini xohlardim.

Nigora ABDUSAMATOVA, 9- sinf o'quvchisi.

Qulog'ingga gapim bor





MEVAZOR

Bog'imizda olma pishdi,
Bordim uni terгани.
Bitta o'zim yemasdan,
Do'stinga ham bergani.

Bahor, kuz oylarida,
Unga ko'p o'g'it berdim.
Mehrim berganim uchun,
Bugun ko'p hosil terdim.

Bog'imda uzum, anor,
Yana gilos, nok ham bor.
Yesangiz «rahmat» deysiz,
Bog'bon dadamga ming bor.

Nodira RAHIMOVA,
Toshkent viloyati,
Olmaliq shahridagi
19 - o'rta maktabning
4 - «V» sinf o'quvchisi.

ONAJONIM BOR BO'LING

Qadamida gul ungan,
Qalbi quvonchga to'lgan,
Ko'zlari doim kulgan,
Onajonim bor bo'ling.

Atrofimda parvona,
Bolajonim, deb yona,
G'amimda ham hamxona,
Onajonim bor bo'ling.

Qalbingiz oy-u quyosh,
Ko'zingiz ko'rmasin yosh.
Bizga doim bo'ling bosh,
Onajonim bor bo'ling.

Maftuna
XOLMO'MINOVA,
Samarqand viloyati,
Urgut tumanidagi
37- maktabning
6- «A» sinf o'quvchisi.

BAHOR KELSA...

Yashnar bog'u-dalalar,
Qirda chiqar lolalar,
Bahor kelsa...

Maysalar unib chiqar,
Boychechak kulib chiqar,
Bahor kelsa...

Kiysa yashil ko'yलगin,
Ko'rib kelar o'ynagim,
Bahor kelsa...

Hammayoq bo'lar
ko'klam,
Yashnab ketadi o'lkam,
Bahor kelsa...

Manzura
ABDUJABBOROVA,
Andijon viloyati,
Izboskan tumanidagi
15- o'rta maktabning
9- sinf o'quvchisi.

BEG'UBOR OSMON

Ko'kka qarasm doim,
Osmon tiniq, beg'ubor.
Tabiat in'om etgan,
Bir ajib chiroyi bor.

Gohida suzar bulut,
Tunda porlaydi yulduz.
Charaqlab turgan quyosh,
Husn qo'shar har kunduz.

Dilrabo
DO'STQOBILOVA,
Yakkasaroy tumanidagi
118 - maktabning
4 - «A» sinf o'quvchisi.

KO'KLAM

Bahor kelsa olamga,
Nur to'ladi xonamga.
Quyosh nurin sochsa gar,
Yashnar qiru adirlar.

Zebo YUSUPOVA,
Sirg'ali tumanidagi
322 - maktabning
5 - «D» sinf o'quvchisi.



Samarqandlik tengdoshingiz Dilfuza OYDINOVA
ushbu rasmini «O'lkamda bahor» deb nomlabdi.

Qadim zamonlarda
barcha hayvonlaru
parrandalar juda ahil,
inoq yashashar ekan.
Bir-birlarini sira
ranjitishmas, hammalari
o'rmon mevalari bilan
oziqlanishar ekan. Lekin
ularning yomon bir odatlari
bor ekan: mevalarni
to'ygunlaricha
y e b ,
qolganini
payhon qilib
yuborisharkan.


Kunlarning
birida
shunday
bir suv
toshqini bo'lib,
barcha mevali
daraxtlarni sindirib, oqizib
ketibdi. Hayvonlar esa
kichkinagina tepalikda
bir amallab jon saqlab
qolishibdi. Shundan



keyin o'rmonda ocharchilik
boshlanibdi. Birinchi
bo'lib ayyor tulki xiyonat
yo'liga o'tibdi. O'z do'sti
boboq xo'rozni xilvatroq
joyda tutib olib, yeb
qo'yibdi. Keyin esa
yuvvoshgina quyon bo'rining
yemishiga aylanibdi. Xullas,
o'rmondagi barcha hayvonlar ikki
guruhga -
kuchlilar va
kuchsizlarga
bo'linib
ketishibdi.

Keyinchalik o'rmonda yana daraxtlar, o't-
o'lanlar o'sib, yashillikka burkanibdi. Lekin
yirtqich
hayvonlar o'z
yemishlarini
o'zgartimabdlilar...

Gulruh
YO'LDOSHEVA,
Navoiy viloyati,
Xatirchi tumanidagi
54 - maktab o'quvchisi.



YOMG'IR

Ko'kdan tomchi-tomchilab,
Zaminga yog'ar yomg'ir.
Shu birgina tomchiday,
Hayotda o'tar umr.

Bolaligim o'tmoqda,
Nelardir qilgim kelar.
Bu hayot so'qmog'iga,
Turfa gul ekkim kelar.

Yomg'ir sho'xligim mening,
O'zginamga o'xshaysan.
Maysalarni sug'orib,
Sen dalada yashnaysan.

Yuragim meni qiynar,
Derazadan qarayman.
Bu ma'yuslik, bu g'amni,
Shu yomg'ir yuvsada deymen.

Yomg'ir tingandan keyin,
Ko'nglim taskin topadi.
Osmonimdan quyosh ham,
Menga kulib boqadi.

Gulzodaxon
IBRAGIMOVA, Toshkent
shahar,
322- maktabning
5- sinf o'quvchisi.

BAHOR

Etyud

Bahor! Bu har inson
ko'nglidagi beg'ubor bolalik
damlari bitilgan bitiklarni yana
bir bor varaqlashga, undagi
har bir kunning yangi
mazmunini kashf etishga
undovchi ajabto'vur fasldir.
Boshiga majnuntoldan,
gullardan jamalak taqmagani
yoxud varrak uchirib, orzulari
varrak misol
havolab, yuksaklamagan,
turnalarning uchishiga,
ovoziga mahliyo bo'lib,
tabiatning betakror go'zalligi
bo'lmish, lola, binafsha,
boychechak, chuchmoma kabi
gullarga boqib,
hayratlanmagan inson yo'q
bo'lsa kerak.

Chindan ham bahor
beg'ubor bolalik chog'larini
yodga soluvchi, inson
ko'nglini yoshartirib go'zallik
va poklikka yo'g'iruvchi
fasldir.

Ma'suda
IRISNAZAROVA,
Toshkent shahri.

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining
gazetasi

Muassislar:
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
DAVLAT MATBUOT
QO'MITASI,
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI
VAZIRLIGI,
«KAMOLOT»
YOSHLAR
IJTIMOY
HARAKATI,
«SOG'LOM AVLOD
UCHUN» XAYRIYA
JAMG'ARMASI

BOSH MUHARRIR:
Umida ABDUAZIMOVA
TAHRIR HAY'ATI:
Shuhrat AHMEDOV,
Jamoliddin FOZILOV,
Oynisa
MUSURMONOVA,
Qahramon
QURONBOYEV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir
o'rinbosari),
Po'lat MO'MIN,
Mukarrama
MURODOVA,
Tohir MULLABOYEV,
Ergashvov SARIQOV.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta «Ijod dunyosi»
nashriyot uyi kompyuter
bo'limida terib
sahifalandi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.
Ijaradagi Toshkent
Matbaa kombinatida
46.291 nusxada ofset
usulida bosildi.
Buyurtma № K- 9141
Gazetani
Muhabbat
MAXSUDOVA
sahifaladi.
Navbatchi:
Tuhfaniso ORTIQOVA

Ro'yxatdan o'tish
tartibi № 000137
Manzilimiz: 700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.

☎: 144-62-34,
144-63-08